

DEMOGRAFIYANING EKOLOGIYAGA TA’SIRI

To‘xtasinova Zulfiyaxon Abdurashid qizi

Talaba, Farg‘ona Politexnika instituti, Farg‘ona shahri

E-mail: toxtasinovazulfiyaxon@gmail.com

Mahmudov Nurillo Hayrillo o‘g‘li

Talaba, Farg‘ona Politexnika instituti, Farg‘ona shahri

E-mail: mahmudovnurillo886@gmail.com

Annotatsiya: Butun dunyoni qamrab olgan ekologik muammo, aholini ko‘payib borish, oziq ovqat yetishmovchligi, suv va yer tanqisligini, ko‘rib chiqamiz

Kalit so‘zlar: Ekologiya, yer, BMT, odam, xavf, global,

Yer sharida bugungi kunda odam duch keladigan ikkinchi global muammo aholi ko‘payib borishi va uning uchun zarur shart-sharoitlar yaratilish muammosidir. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, Yer sharida 2025 yilga borib, 8 mlrd. odam yashaydi. Ularga suv, ozuqa va quyosh nuri zarur. Ammo Yer bularni hammaga birdek etkazib byera olmaydi. Demografik muammolar dunyo mamlakatlari tomonidan tan olindi. 1988 yilda AQSh milliy geografiya jamiyati «Yer kurrasi xavf ostida» nomli haritani bosmadan chiqardi va odamlar soni o‘ylovsiz darajada ko‘payib borayotganligini isbotladi. Hona sapiens-aqlli odam bor-yo‘g‘i 100 ming yil davomida yashayotgan bo‘lsa ham u o‘zi yashayotgan planeta taqdiriga xavf sola boshladi. XVIII asr o‘rtalarida planetamizda bori yo‘g‘i 800 million odam yashagan bo‘lsa, 1820 yilga kelib, yerliklar 1 milliardga etdi. 1927 yilda 2 milliard, 1959 yilda 3 milliard, oradan 1,5 yil o‘tgach 4 milliard, 1987 yilda 5 va 2000 yilda 6 milliarddan oshdi. Agarda bu boradagi o‘shish yana ikki asr shunday davom etsa, Yer sharida aholi zichligi hozirgi Moskva shahri aholisi zichligi darajasida bo‘ladi.

BMT ma’lumotiga ko‘ra, Yer sharida 2025 yilda aholi soni 8,3 milliardga etadi. Hozirgi kunda yiliga 130 ming. odam tug‘ilib 50 ming odam o‘lmoqda, o‘rtacha ko‘payish 80 min kishini tashkil qilmoqda. Odam asossiz ko‘payib borayotgan mamlakatlar Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari hisoblanadi. Bu mamlakatlarda bir kunda aholi soni o‘racha 254 mingta ko‘paymoqda. Ko‘payayotgan aholining 40-50 foizini yosh bolalar tashkil qiladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholining ko‘payishi juda cheklangan. G‘arbiy Evropa mamlakatlari aholisining sanoat tovarlari va tabiiy zahiralardan foydalanish darajasi bu hududdagi boshqa mamlakatlarga qaraganda 10 marta ziyod. 1984 yilda dunyoda donning yalpi miqdori I martaga oshgan bo‘lsa, odam soni 2 martaga oshdi. Oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish imkonlari juda kam. Och odamlar kundan-kunga oshib bormoqda. Ularning soni 1970 yilda 460 mln.ga 1990 yilda 550 mln.ga etdi, 2005 yilda esa 650-660 mln.dan oshdi. Har kuni ochlikdan 35 mingo bir yilda 12 min. kishi o‘ladi.

Dunyoni odamlardan tashqari avtomobillar, traktor, mototsikl va samolyotlar ham egallab bormoqda. a250 million ta avtomobil, 6 mln. aholiga zarur bo‘lgan kislorodni talab qiladi. Agarda rivojlanish shu yo‘sinda borsa, yana 2 asrda atmosferada kislorod mutlaqo tugaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75 -sessiyasi tomonidan 2021-yil 30-avgustda qabul qilingan Ramsar konvensiyasi qabul qilingan sana 2-fevralni - Butunjahon suv -botqoqli yerlar kuni deb e‘lon qiluvchi rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi respublika tomonidan qo‘llab quvvatlangani uchun minnatdorchilik bildirildi.

Yer sayyorasidagi hozirgi vaziyat deyarli hamma joyda tabiiy muhit sifatining keskin yomonlashuvi havo, daryolar, ko‘llar, dengizlarning ifloslanishi bilan tavsiflanadi; har xil turdagi chiqindi mahsulotlarni axlatga tashlash; o‘simlik va hayvonot dunyosining ko‘plab turlarining qashshoqlashishi va ko‘pincha butunlay yo‘q bo‘lib ketishi; tuproq degradatsiyasi; cho‘llanish, o‘rmonlarning kesilishi va boshqalar.

Inson faoliyatining salbiy ta'siri biosfera , atmosfera , gidrosfera, litosferaga tarqaldi. Jamiyat va tabiat o'rtasidagi bu ziddiyat tabiiy tizimlarda qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlarning paydo bo'lishi xavfini keltirib chiqaradi , yer sayyorasi aholisining hozirgi va kelajak avlodlari mavjudligining tabiiy sharoitlari va resurslariga putur yetkazadi . Jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining o'sishi , urbanizatsiya , ilmiy –texnikaviy taraqqiyotning jadal rivjlanishi bu jarayonlarning o'ziga xos katalizatoridir.

Aholining o'sishining atrof-muhitga salbiy ta'sirini umumlashtirish ko'pincha noto'g'ri. Demograflar bu yondashuvdan uzoq vaqt voz kechishgan, ammo ba'zi hollarda siyosat hali ham xuddi shunday umumlashtirishlar haqiqatni aks ettirgandek olib borilmoqda.

Aholi soni ortib borayotgani va globallashtirish kuchayib borar ekan, muhim siyosat masalalari: mavjud yer va suv resurslaridan hamma uchun oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun qanday foydalanish, iqtisodiy rivojlanish va qashshoqlikka barham berish, har bir inson o'zini boqishi uchun qanday yordam berish va gumanitar muammoni qanday hal qilish kerak. va sanoatlashtirishning ekologik oqibatlarini - yoki 19-asr retseptlari bo'yicha, yoki Sovet bloki usullari bilan yoki 20-asrdagi agrobiznesni rivojlantirish modellari yoki 21-asr muammolari, masalan, global isishi , iqlim o'zgarishi va turlarning biologik xilma-xilligini yo'qotish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. A. Ergashev “Umumiy ekologiya”. Oliy o'quv yurt talabalari uchun darslik Toshkent- 2003.
2. Y. Shodimetov, R.Rahimbekov, “Ijtimoiy ekologiyaga kirish”. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent „O'qituvchi” 1994.
3. O. Qudratov „Sanoat ekologiyasi".Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bakalavrlar uchun o'quv qo'llanma.Toshkent-2003.
4. I. X.Ayubova, M.N.Musayev, I.A.Jamgaryan. „Atrof-muhit sifat analizi va monitoringi".Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.Toshkent-2011.